



**“QISHLOQ XO‘JALIGI
MAHSULOTLARINI SAQLASH VA QAYTA
ISHLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI
INNOVATSION YECHIMLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

2025-YIL 14-OKTYABR

AXBOROT XATI

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "2025-yilda o'tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar to'g'risida"gi buyrug'iga asosan Toshkent davlat agrar universitetida 2025-yil 14-oktyabr kuni **"Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashdagi muammolar va ularni innovatsion yechimlari"** mavzusida o'tkaziladigan III-Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etishga taklif etamiz.

Anjuman tili: o'zbek, rus, ingliz tillari.

ANJUMAN SHO'BALARI:

1-sho'ba: Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash, qadoqlashdagi muammolar va ularni innovatsion yechimlari.

2-sho'ba: Qishloq xo'jaligi biotexnologiyasi va mahsulotlarini sifat ko'rsatkichlariga qo'yilgan standart talablar, oziq-ovqat xavfsizligi hamda ularni iste'molchilar uchun ahamiyati.

3-sho'ba: Meva-sabzavotchilik, uzumchilik, ipakchilik va chorvachilik mahsulotlarini hamda o'rmon va dorivor o'simliklarni yetishtirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishdagi muammolari.

4-sho'ba: Qishloq xo'jaligi ekinlarida tuproq unumdorligini oshirish va ekologik toza mahsulotlarni yetishtirishda kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashning zamonaviy usullari.

5-sho'ba: Qishloq xo'jaligida raqamli iqtisodiyotini barqarorlashtirish, xalqaro biznes va huquq turizimini rivojlantirish istiqbollari.

ANJUMAN MATERIALLARIGA BO'LGAN TALABLAR

Anjuman materiallari elektron to'plam holda tayyorlanib barcha ishtirokchilarga yetkaziladi. Taqdim etilgan materiallar mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, amaliy ahamiyati, tadqiqot uslublari, tajribalarning natijalari, ularning tahlili va xulosalari ifodalanishi zarur. Taqdim etilgan materiallar yuqorida qayd etilgan tartibda rasmiylashtirilmasa, maqola tezislari to'plamiga kiritilmaydi va muallifga qaytarilmaydi ma'lum qilamiz.

Dolzarbligi. Maqola yuqorida keltirilgan sho'balarga tegishli dolzarb mavzu bo'yicha yozilishi va mustaqil tadqiqot natijalarini o'z ichiga olishi, shuningdek ilgari nashr etilmagan yoki boshqa nashrlarga bundan keyin berilmasligi kerak.

Mas'uliyat va javobgarlik. Mualliflar tashkiliy qo'mitaga yuborayotgan materiallarining mazmuni va savodxonligi uchun javobgardirlar. Shuning uchun puxta tayyorlash lozim.

Maqola hajmi 4-5 betgacha bo'lishi, mualliflar soni 3 nafardan ko'p bo'lmasligi tavsiya etiladi.

Rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar: Sahifa formati – A4 (210×297 mm); chegaralar (yuqorigi, pastki, chap va o'ng tomonlar) – 20 mm; shrifti – kegl; 14; tipi – Times New Roman; qator oralig'i – 1,5; sahifalar raqamlanmaydi. Matn originalligi – 65%.

Maqolada ketma-ketlik tartibi:

1. UO'K

2. Mualliflarning familiyasi, ismi va otasining ismi (*o'zbek, rus va ingliz tillarida transliteratsiya asosida*).

3. Ilmiy darajasi va unvoni, ish yoki o'qish joyi, shahri (*o'zbek, rus va ingliz tillarida*).

4. Muallifning elektron pochtasi.

5. Maqolaning sarlavhasi (*o'zbek, rus va ingliz tillarida*).

6. Annotatsiya (100-200 so'z) (*o'zbek, rus va ingliz tillarida*).

7. Kalit so'zlar (7-10 so'z) (*o'zbek, rus va ingliz tillarida*).

8. Maqola matni.

9. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Maqola sarlavhasi, annotatsiya va kalit so'zlarni rus va ingliz tillariga tarjima qilishda Google translate, Yandeks perevodchik, PROMT va shu kabi tarjimonlardan foydalanishga ruxsat etilmaydi.

Annotatsiya. Maqolaning qisqacha mazmuni, shu jumladan dolzarbligi, maqsadi, tadqiqot usuli va olingan natijalar.

Kalit soʻzlar. Maqoladagi eng muhim boʻlgan va tadqiqot mavzusi hamda sohasini aniqroq tavsiflovchi soʻzlar.

Rasmlar va jadvallar raqamlangan boʻlishi, jadvallarning nomi jadvalning yuqori qismiga, rasmlarning nomi rasmni pastki qismida oʻrtada joylanishi kerak.

Adabiyotlar “Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati” nomi ostida GOST R 7.0.5-2008 ga muvofiq rasmiylashtiriladi. Matnda roʻyxatda keltirilgan adabiyot raqami toʻrtburchak qavs ichida koʻrsatiladi. Masalan: [5], [2, 5].

Eslatma: Ilmiy maqolaning xajmi 5 betgacha boʻlgan holda qogʻoz nusxasi va elektron variantda topshirilishi lozim. Elektron variantda bitta faylda faqat bitta material boʻlishi kerak. Elektron variantdagi faylning nomi birinchi muallifning familiyasi va shoʻba raqamidan iborat boʻlishi kerak. Masalan: *Abdullayev A. 2-shoʻba.rtf*.

Fayl **rtf* formatida saqlanishi lozim.

Bosma shakldagi maqola betlari *qalam bilan* koʻrsatiladi, *elektron variantda esa betlar nomeri* qoʻyilmaydi.

Mualliflik badali har bir maqola uchun **250 000** (ikki yuz ellik ming) soʻm miqdorda belgilangan.

Berilgan maqolalar ekspertlar tahlilidan oʻtadi. Ilmiy-anjuman mavzusi va nashr talablariga javob bermaydigan, ekspertlar tahlilidan oʻtmagan maqolalar matni qabul qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Materiallarni quyidagi manzilga yuborishingizni soʻraymiz.

Anjumanning tashkiliy qoʻmitasi: Toshkent davlat agrar universiteti, Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va qadoqlash kafedrası.

Masʼul xodim: Xakimova Mavjuda Baxtiyor qizi. Tel: +99897-450-12-93,

Ilmiy maqolalar +99897-450-12-93 raqamlari telegram kanali orqali qabul qilinadi.

Maqolalar: 2025-yil 10-oktabrga qadar qabul qilinadi.

Toʻlov uchun: **Plastik raqam:** 5614 6812 8297 6038 (*Nematov Nurillo*) skrinshot qilinib yuqoridagi telegram manziliga yuboriladi).

Maqola bilan ishtirok etgan har bir ishtirokchiga xalqaro sertifikat beriladi.

Maqolalar “Oʻzbekiston agrar fani xabarnomasi” jurnalining maxsus sonida chop etiladi.

Ilmiy maqola mualliflari haqida quyidagi maʼlumotlar ilova qilinadi.

“Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashdagi muammolar va ularni innovatsion yechimlari” mavzusi boʻyicha III-Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchisi toʻgʻrisida

MAʼLUMOT

Anjuman ishtirokchilarini roʻyxatga olish shakli	
Familiyasi, ismi va otasining ismi (toʻliq)	
Ish yoki oʻqish joyi	
Lavozimi	
Ilmiy darajasi va unvoni	
Elektron pochta manzili	
Telefon raqami (shahar kodi bilan)	
Maʼruza mavzusi	
Anjuman yoʻnalishi	
Sana	

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet koʻchasi, 2-uy, Toshkent davlat agrar universiteti (TDAU)